

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



“Kelishildi”  
O'quv-uslubiy departament  
boshlig'i  
*S.S. Davlatov* S.S. Davlatov

5111100-Musiqa ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan  
Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon

## D A S T U R I

Yakuniy Davlat attestatsiyasi sinoylarida o'tkaziladigan fanlar tarkibi:

- 2.11 - Vokal va zamonaviy musiqa;
- 3.01 - Musiqa Nazariyasi;
- 3.02 - Dirijorlik;
- 3.05 - Cholg'u ijrochiligi va ansambli.

Buxoro davlat universiteti Kengashining 2025 yil 31 - yanvar dagi 6-sonli yig'itilish qaroriga muvofiq tasdiqlangan.

Dastur Buxoro davlat universitetida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Musiqaga ijrochiligi va madaniyat kafedrasii  
professori, p.f.n.:



B.I. Mustafoyev

Musiqaga ijrochiligi va madaniyat kafedrasii  
katta o'qituvchi:



U.M. Mirshayev

Taqrirlar:



M.M. Karimov, A. Fitrat nomidagi Buxoro  
maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab  
internati

I.N. Iskandarov, Buxoro ixtisoslashtirilgan  
san'at maktabi



Imtixon dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va  
tasdiqlangan.

2025 yil «31» yanvar dagi 6 - sonli bayonoma.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021 yil 16 noyabrda № 1963-3 son  
bilan ro'yatga olingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil  
10 noyabrda № 38-2021-son buyrug'i bilan tasdiqlangan  
"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat  
attestatsiyasi to'g'risida NIZOM"ga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi  
№ 38-2021-sonli buyrug'iga muvofiq ishlab chiqildi.

- 1) Mugaddima
- 2) I. Umumiy qoidalar
- 3) II. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari
- 4) III. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi
- 5) IV. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi
- 6) V. Yakuniy qoidalar

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga muvofiq oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.
2. Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.
3. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
  - bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholashi;
  - yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;
  - komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
  - 4. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.

## II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIVASINING SINOVLARI

5. Yakuniy davlat attestatsiyasi ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) o'quv rejalariga muvofiq quyidagi turlardagi attestatsiya sinovlaridan iborat:
  - xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan o'tkazilishi mumkin);
  - ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlararo (majburiy fanlar) yakuniy davlat attestatsiya sinovi;
  - diplom loyihasi himoyasi;
  - bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi.
  - 6. Xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mazkur fanning davlat ta'lim standartida belgilangan zaruriy mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni talaba tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

7. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha malaka talablarida bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

8. Yakuniy davlat attestatsiyasini majburiy fanlardan (fanlararo) yakuniy davlat attestatsiya sinovi yoki diplom loyihasi himoyasi yoxud bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi shaklida o'tkazilishi bitiruvchilarning iqtidori, xohishi va ta'lim xususiyatidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori bilan belgilanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi qo'shimcha sifatida kiritilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan yakuniy davlat attestatsiyasining shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari o'quv jarayoni jadvallida ko'rsatilgan muddatlarda fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim (boshqarma) tomonidan tayyorlangan, oliy ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jadvali asosida o'tkaziladi.

9. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tajribali professor-o'qituvchilarni jalb etgan holda yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining dasturlari va baholash mezonlari ishlab chiqiladi hamda oliy ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan kamida uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi.

### III. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIIYA

#### KOMISSIYALARI TARKIBI

10. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raisligiga nomzodlar kafedra mudiri tomonidan tasdiqlash uchun oliy ta'lim muassasasi rektoriga (filial direktoriga) taqdim etiladi.

11. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari oliy ta'lim muassasasining idoraviy mansubligidan gati nazar, ushbu ta'lim muassasasida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarishning tajribali mutaxassislaridan tegishli oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan bir yil (kalendar yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi keema-ket bir oliy ta'lim muassasasida tegishli yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha ikki marta dan ortiq yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining raisi bo'lishi mumkin emas.

12. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari rahbarligida oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) bilan birgalikda xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan) va (yoki) ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoki majburiy fanlardan yakuniy davlat attestatsiya sinovini o'tkazish bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi shakllantiriladi.

13. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy

ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining etakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishli soha olimlaridan iborat bo'ladi.

14. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasida vasiylik kengashi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarning oilonalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurmachilari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida gatanashishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari jarayoni onlayn rejimda ovozli videotranslyatsiya qilinadi hamda ushbu video tasvirlar 1 yil davomida mutaxassislik kafedrasida saqlanadi.

15. Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tarkibi oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi.

Zaruriyat bo'lganda attestatsiya sinovlarining biri bo'yicha bitta rais rahbarligida bir nechta yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tuzilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining davlat attestatsiyasidan o'tmagan yo'nalish va mutaxassislik bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi ushbu oliy ta'lim muassasasining yuqori turuvchi vazirlik (idora) tomonidan tashkil etiladigan davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

### IV. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIIYASINI

#### O'TKAZISH TARTIBI

16. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari boshlanishidan oldin yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raislari bilan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) shaxsan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tayyorgarlik darajasi, komissiya raislari va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom to'g'risida yig'ilish o'tkaziladi.

17. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari yozma, test yoki og'zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori asosida ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Talabalar sinov o'tkaziladigan fanlar dasturlari bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

18. Yakuniy davlat attestatsiyasiga tegishli o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tishlari majburiydir.

19. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat

attestatsiya sinovi yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining ochiq majlislarida, attestatsiya kamida uchdan ikki qismini ishtirok etgan holda, rais ishtirok etmagan taqdirda a'zolarning kamida uchdan ikki qismini ishtirok etgan holda, rais ishtirok etmagan taqdirda rais o'rinbosari raisligida o'tkaziladi.

Diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestatsiya sinovi ishlab chiqarish bazasida tashkili erilgan kafedra filiallarida sohaning etakchi mutaxassislarini jalb etgan holda o'tkazilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni rasmiy lashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlarida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatsga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

20. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi berish haqida qaror qabul qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi yakuniy davlat attestatsiyasi tarkibiga kiritilgan yakuniy davlat attestatsiya sinovidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot o'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

22. Fanlar dasturlarini o'zlashtirishda kata yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismini bo'yicha 90 ball va undan yuqori (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 ball) dan (5 baholik tizimda o'zlashtirish ko'rsatkichi 4 bahodan (yaxshi) kam bo'lmagan), shuningdek, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha kamida 90 ball baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavrlar bitiruvchisiga "imiyozli" diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini keyingi 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bunda, shaxsga yakuniy davlat attestatsiya sinovini keyingi har bir o'quv yilida (3 yil davomida) 2 marta dan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berish o'liy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan rasmiy lashtiriladi.

24. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan keyingi 3 yil davomida qayta o'ta olmagan talabaga akademik ma'lumotnoma beriladi va u o'natilgan tartibda, to'lov-kontakni asosida tegishli bitiruv kursiga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

26. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar

rektorining buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun o'liy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi o'liy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek tegishli sohaning malakali mutaxassislari, turdosh o'liy ta'lim muassasalarining tajribali professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi ishida ishtirok etgan shaxslarning kiritilishi ta'qiqlanadi.

28. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

29. Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining ishi bo'yicha yillik hisobot o'liy ta'lim muassasasi ilmiy kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur ilmiy kengashga yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raislari taklif qilinadi.

## V. YAKUNIY QOIDALAR

31. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo'yicha nizozlar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

32. Ushbu Nizom O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, Davlat soliq qo'mitasi, Badiiy akademiya, Navoiy Kon-metallurgiya kombinati, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'e'ligni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Davlat test markazi bilan kelishilgan.

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil, 23-son, 267-modd.

## 1. Yokal va zamonaviy musiqaga

### 1-mavzu. Musiqaga madaniyati va uning hayotdagi o'rni

O'zbekistonda musiqaga madaniyatini shakllanishi jarayonlari, musiqada yangicha uslub, musiqaga madaniyatini rivojida milliy cho'g'ular o'rning o'rni va ahamiyatini, tarixiy tarqalgan davomida xalq muhtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqaga, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor - xavaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin jirochilik ko'rinishlari hamda ushbu musiqiy merosni bugungi ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lishi.

### 2-mavzu. O'zbek musiqaga madaniyati namoyandalari

Komil Xorazmiy, Ota Jaloliddin Nazirov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla Tuxchi Toshmuxammudov, Madali Xo'fiz, Raxmatillo o'g'li, Usta Olim Komilov, Domla Xalim

Hodov, Muhiiddin Qori Yoqubov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Jo'raxon Sultonov, Namunjon Uzoqov, Tamaxonim, Muxtor Ashrafiy, Halima Nosirova, Mutal Burxonov, Mammajon Qodirov, Fattoxon Mammadaliyev, Matniyoz Yusupov, Tavakkal Qodirov Komiljon Qaniyozov, Fattoxon Mammadaliyev, Matniyoz Yusupov, Tavakkal Qodirov hayot va yo'li va ijodiy faoliyati.

Vokal pedagogikasi fanning ta'lim tizimidagi mohiyati. Tahlil berishda asatsekinlik printsiplari ahamiyat qilib. Vokal texnik rivojlanishda musiqiy va badiiylik birligi printsiplari va uning tarbiyadagi mohiyati. Har bir talabaga individual yondoshish printsiplari. Mukammalkka xamisha intilish printsiplari.

**3-mavzu. Vokal va zamonaviy musiqaga fanning maqsad va vazifalari**  
Fanni o'qishning maqsad va vazifalari, qo'shiq – aytm tushunchasi va uning inson hayotidagi o'zini, o'zbek xalq qo'shiq ijrochiligi hamda xonadalik ijrochiligi tarixi, vokal va zamonaviy musiqaga xonadalligi to'g'risidagi asosiy tushunchalar, ovoz hosil qilish va uning turlarini, xonadalik nafasi, artikulyatsiya, intonatsiya va dinamik belgilari.

**4-mavzu. XX asr musiqaga san'ati rivojining ba'zi xususiyatlari**  
Zamonaviy san'at shakllanishining ijtimoiy tarixiy jarayonlari, san'at – yangi muammolarini o'rganishning estetik-madaniyatshunoslik yo'nalishi, musiqiy janr va usulning hosil bo'lish tarixi. XX asr san'atida xuddi kontseptsiyasi, mavzuviylikni tashkil etish, motivi mikro mavzuviylik, cho'zilgan mumtoz mavzuviylik.

**5-mavzu. Xonadalik asoslari**  
Xonadalik san'ati mahorati, ovoz imkoniyatlari, uning gigiyenasi va talqini bilan bog'liq qonuniyatlarni va talaffuz masalalari, so'z va ohang, hadixago'ylik, ijrochilik, xoffizik, o'zbek san'ataviy xonadalik san'ati amaliyotida juda ko'p ovoz turlari va uning o'ziga xos xususiyati.

**6-mavzu. Vokal va zamonaviy musiqada ovoz tarbiyasi**  
Xonadaning ovoz tuzishi tavsifi, erkaklar ovozi registrlari, ayollarni ovozi registrlari, ko'krak va bosh rezonanslari, ovoz tayanchi, kuylayotganda lab, til va yumshoq tanglay ish faoliyati, xonadaning nutqi, ovoz tarbiyalaishining fonetik uslubi, xonadaning hayot tuzi.

## 7-mavzu. Vokal musiqaga pedagogikasining asosiy tamoyillari va uslublari

Ta'limda ketma - ketlik va uluksezlik tamoyili, vokal pedagogikasida uslublar, talaba tovuhiiga o'qituvchining ta'bir etish usullari, xonadalik ovozi amiqlash, xonadalik registrlari, akaba turlari, musikal usulning qimmatligi, nutq orqali tushuntirish, so'z ahamiyati - ovoz tuzilishi haqidagi ichonchi tushuncha, ashula aytishda kuzatuvli o'zaro hamkorlikni tushuntirish, tovush va musikalarni his etish.

## 8-mavzu. Vokal asarlarini va mashqlarini ijro etish yuzasidan metodik tavsiyalar

Kuylash va uning xususiyatlari, kuylashni boshlash (xirgoyi), registrlarni silliqlash, artikulyatsiya, diktsiya, silliq ovoz harakatchanligini rivojlantirish.

## 9-mavzu. Vokal va zamonaviy musiqaga asarlari tahlili

Musiqaga asarlar tahlili, musiqada janr va uslub tushunchasi, kuy – ohang, metr va ritm, musiqaga san'ati estetika (umumiy qoidalar), psixologiya (emosional xarakterlar), falsafa (mavzularning ziddiyatligi), musiqada tarixiy faktlar (kuy, ritm, garmoniya), ovozlarning past-balandligini o'zaro bog'liqligi.

## 2-Modul. Amaliy mashg'ulotlar mazmuni

**10-mavzu. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llari**  
Xonadalik ovozi belgilovchi sifatlar, ovozlarni klassifikatsiyasi, ovozlarni temr va balandligiga ko'ra tasniflanadi, tovush paydo qilish organlarining tuzilishi, ayollar ovozi, erkaklar ovozi, bolalar ovozi turlari.

**11-mavzu. Nafas organlari anatomiyasi**  
So'zlash va kuylash xossalari, nafas olish turlari, kekirdek tuzilishi, tovushxujumi tovush hosil qilish nazariyasi, ovoz a'zolarining tuzilishi va ularni to'g'ri tarbiyalash xususiyatlari.

**12-mavzu. Kuylash uslubiyoti pedagogikasi**  
Kuylash uslubiyoti, xonadaning eshitish kobilyatini tarbiyalash va rivojlantirish, psixologiya - inson sub'ektiv dunyosi xakidagi fan sifatida, ovoz apparatining kuylash vaqtidagi ish faoliyati, gavdani tik tutish, musiqaga asarini ijro etishda ovoz dinamikasidan to'g'ri foydalanish, jumalarni badiiy ijro etish, kuylashda ovoz filirovkasi.

**13-mavzu. Vokal ijrochiligida ikki qismli shakl**  
Oddiy ikki qismli shakllar, vokal musiqasida reprizasiz ikki qismli shakl, oddiy uch qismli shakl, dinamizatsiyalash va uning usullari, ikki qismli shaklturkumli asarlar.

**14-mavzu. Xonadalik uslubiyoti asoslari**  
Ovoz apparati akustikasi va ovozi akustik tuzilishi, tovush balandligi, akustikada rezonator, ovoz apparatining kuylash vaqtidagi ish faoliyati, xonadaning ovoz apparati, gavdaning kuylayotganda holati, boshni to'g'ri ushlash, artikulyatsion organlar, troxeya va bronklar ish faoliyati, diafragma xosil qilish, kuylashda ovoz dinamikasi

**15-mavzu. O'zbek milliy qo'shiqchiligining qadr topish xususiyatlari**  
Milliy qo'shiqchilikda ovozi yo'lga qo'yish uslubiyoti, vokal mashqlari, xonadalik nafasiga oid amaliy maslahatlar, og'izni yopib kuylash, badiiy matn ustidatlash, she'riy matnni musiqaga orqali ifodalab berish.

## 2. Musiqaga Nazariyasi

### 1-mavzu. Musiqiy tizim

Musiqaga san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Musiqaning asosiy ifodalari vositalari, Badiiy obraz. Musiqiy tovush va uning xususiyatlari. Musiqiy tizim tovushqatori, yuqori tonlar, tabiiy tovushqator. Oklava.

## 2-mavzu. Musiqaviy tovushlarning o'zaro munosabatlari va harfiy sistemasi

Musiqaviy soz. Temperatsiyalangan soz. Yarim ton va butun ton. Hosila pog'onalar va ularning nomlari. A'teratsiya. Diapazon. Registr. Tovushlar engarmonizmi. Diatonik va xromatik yarim tonlar va butun tonlar

## 3-mavzu. Nota yo'zuvi, nota cho'zimalari va ularda qo'llaniladigan belgilar

Nota yozuvi, nota cho'zimalari va ularga qo'yiladigan tovushlar cho'zimini uzaytiruvchi qo'shimcha belgilar. Kalitlar. Tovushlarning harfiy tuzilmada ifodalaniishi. Pauzalar.

## 4-mavzu. Ko'p ovozi musiqaning yozilishi, nota yozuvini qisqartiruvchi va dinamik belgilar

Ko'p ovozi musiqaning yozilishi. Dinamik belgilar. Nota yozuvini qisqartirish belgilari

## 5-mavzu. Ritm va metr

Musiqaviy zarb. Metr. o'lehov, takt. Takt chizig'i. Takt oldi. Oddiy metrlar va o'lehovlar. Oddiy o'lehovli taktlarda cho'zimalarning turkumlanishi. Murakkab metrlar va o'lehovlar. Murakkab o'lehovli taktlarda cho'zimalarning turkumlanishi. Aralash metr va o'lehovlar. Aralash o'lehovli taktlarda cho'zimalarning turkumlanishi. O'zgaruvchan o'lehovlar. Cho'zimalarning asosiy va erkin ravishda bo'linishi

## 6-mavzu. Sinkopa. Vokal musiqasida turkumlash. Temp (sur'at)

Sinkopaning ahamiyati. Vokal musiqasida turkumlash. Temp (sur'at)

## 7-mavzu. Oddiy, diatonik va xromatik intervallar. Intervallarning engarmonik tengligi

Oddiy intervallar va diatonik intervallar. Xromatik intervallar. Intervallarning engarmonik tengligi.

## 8-mavzu. Intervallarning aylanishi, tarkibli intervallar, konsonans va dissonansintervallar

Intervallarning aylanishi. Tarkibli intervallar. Ohangdosh (konsonans) va noohangdosh (dissonans). Intervallar

## 9-mavzu. Lad (major va minor ladi). Tabiiy major garmmasi

Lad. Turg'un va noturg'un tovushlar hamda ularning yechilishi. Major va minor ladi. Tabiiy major garmmasi

## 10-mavzu. Tonalilik, diezli va bemolli major tonalliklari kvinta davrasi.

Major tonalliklari engarmonizmi

Tonalliklar. Diezli va bemolli major tonalliklari. Kvinta davrasi. Major tonalliklari engarmonizmi. Tabiiy, Garmonik, Melodik major va minor ladi.

## 11-mavzu. Tabiiy garmmik, melodik, major va minor ladi hamda tonalliklarining kvinta davrasi.

10

Tabiiy major ladi. Garmonik va melodik major. Minor ladi. tabiiy minor garmmasi. Garmonik va melodik minor.

## 12- Paralel tonalliklar minor tonalliklarining kvinta davrasi, nomdosh tonalliklar

Paralel tonalliklar. Minor tonalliklarining kvinta davrasi. Nomdosh tonalliklar

## 13-mavzu. Akkorlar

Akkord. Akkorlar turlari. Uchtovushlik, unung turlari va aylamatalari. Lading asosiy uchtovuushliklari. Septakkord, unung turlari, aylamatalari va yechilishlari.

## 14-mavzu. Tonalliklar pogonadoshligi

Alteratsiya, xromatizm, og'ishma. Modulyatsiya. Major va minor xromatik gamma.

## 15-mavzu. Musiqiy sintaksis

Kuy. Kuy harakatlari. Davrtiya, jumla, kadensiya, kulminatsiya. Transpozitsiya. Melizmlar.

## 3. Dirijorlik

### 1-Mavzu: Dirijorlik malakalarini shakllantirish.

Diqqat nuqtasi, aufakt (qo'lining xarakat va sur'atiga xos ijrochilariga nafis oldirish, ijrochilarga asar xarakterini aniq va ravshan his ettirish, ijrochilarni asar sur'ati tezligiga binoan tayyorlab borish), ijroni boshlash nuqtasi ( ijrochilarni asarning oxirigi akkordga tayyorlash, ijroni uzish ), ijroni uzish nuqtasi, zarbli va zarbsiz nuqta.

### 2-Mavzu: Dirijorlik mahoratini oshirish xususiyatlari.

Dirijorlik fanida qo'l xarakatlarini to'g'ri bajarish, ayniqsa dirijorlik imo-ishoralarni tasavvurda hosil qilish va uni tushungan xolda bajarilishini ta'minlash. Ansambli, orkestr yoki xor jamoasi bilan ishlashda dirijor qo'l va imo-ishora harakatlarini tushunish metodikasini talabalar ongiga singdirish.

### 3-Mavzu: Murakkab o'lehovda yozilgan asarlarning dirijorlik mahorati.

Murakkab o'lehovlarda yozilgan dirijorlik asarlarini, masalan, 7/8 o'lehovinikki xil dirijorlik qilish tartibi va qoidalarni o'rgatish metodikasini talabalariga tushuntirish.

### 4-Mavzu: Dirijorlik apparatini shakllantirish. Bosh, gavda, qo'l, oyog, elka, bilak, panja, holat harakatlari.

Bugungi kunda dirijorlardan - musiqia adabiyoti bo'yicha keng bilim egasi, musiqiy nazariy bilimga yaxshi tayyorgarligi bor, musiqiy qobiliyatga ega- nozik, maxsus tayyorlangan eshitish qobiliyatiga ega, a'lo darajadagi musiqia xotirsiga, shakl va ritmi his etadigan, shuningdek dirijorning diqqati bir joyga yig'ilgan bo'lishi shart. Dirijorda faol maqsadlari yetaklovchi erkin bo'lishi shart. Shuningdek dirijor psixolog, tarbiyachi va yaxshi tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi darkor: ushbu hislatlar doimiy musiqia jamoasini boshqarib keladigan dirijorlarga zarur.

Dirijorlik san'ati maxsus, sistemali qo'l harakatlarini ishlash asosida paydo bo'ladi.

11

Dirijorlik jarayonida dirijorlik apparati katta ahamiyatga ega, ya'ni dirijorning yuzi, imon-iskoras, mimikasi, bosh, gavda, qo'llar, yvekka, oyoqlar holatlardir.

#### 5-Mavzu:Oddiy dirijorlik o'leovlari; 2/4;3/4;4/4.

Dirijorlik chizmasi bo'ylab o'ng qo'lining harakati to'rt asosiy yo'nalishni: pastga, chapga (tanaga), o'ngga (tanadan), yuqoriga o'z ichiga oladi. Bu harakatlar musiqaning muhim belgisini aks ettirib, kuchli va kuchsiz hissalarining ketma-ketligini ko'rsatadi. Birinchi – takning eng kuchli hissi qo'lining pastga qarab harakatlanishi bilan ifodalansa, so'nggi – eng kuchsiz hissi qo'lining yuqoriga harakatlanishida ko'rinadi. Oraliq hissalar esa o'zining o'leoviga qarab takt uzunligi bo'ylab taqsimlanadi.

#### 6-Mavzu:Dirijorlikning asosiy elementlari "diqqat", "nafas", "aufrakt"-ijroni boshlash", "ijroni tugatish" (uzish)

Dirijor qo'llarining diqqat nuqtasidan yuqori tomon ko'tarishi, yani aufrakt ijrochilar uchun nafas olish jarayoni hisoblansa, qo'llarning quyvigiga tushib bir nuqtaga kelib qo'nishi ijroning boshlanishidan darak beradi va mana shu nuqda ijro nuqtasi deyiladi. Bu holda qo'lining tirsak va bilakni birashtiruvchi bo'g'ini bel balandligida bo'yib, panja va bilak qismlari yerga qaratilgan bo'ladi va harakatning davomi aynan shu nuqtadan boshlanadi.

7-Mavzu:Dirijorlik xarakatlarining asosiy tamoyillari; erkinlik, sxema aniqligi,tejamilligi, qiyofaning ifodaliligi,turli nyanaslarda dirijorlik qilish.

Qo'llariga qo'yiladigan asosiy talab - ularning to'la erkinligi, ya'ni tanagabo'yusnmas Dirijorning ligi va mushaklarning bo'sh qo'yilishidir. Erkinlik dirijorga musiqani oson ifoda etish imkonini beradi.

Dirijorning bosh holati xor jamoasiga qaratilgan bo'lishi, xor va orkestr jamoasining a'zolariga aniq, ravshan qaratilgan holatda. Yuz ifodasining ifodaliligi katta ahamiyatga ega. Agar dirijorning mimika va nigohlari ifodali dirijorlik xarakatlariga mos kelmasa, hech qaysi qo'l o'zining tezlik xarakatini ko'rsata olmaydi. Bunda yuz ifodasida salbiy va yuqimsiz holatni ko'rsatadi.

#### 8-Mavzu: Dirijorlik chap va o'ng qo'l vazifalari.

Musiqada berilgan biror aniq holatga ko'ra, o'ng va chap qo'l harakatlari o'z vazifalarini almashirishi mumkin. Ya'ni, chap qo'l aniq harakatlar bilan ansambli ijrosini ushlab tursa, o'ng qo'l ifodali harakatlar bilan ijrochilarni ruhlaniradi. Musiqada berilgan biror aniq holatga ko'ra, o'ng va chap qo'l harakatlari o'z vazifalarini almashirishi mumkin. Ya'ni, chap qo'l aniq harakatlar bilan ansambli ijrosini ushlab tursa, o'ng qo'l ifodali harakatlar bilan ijrochilarni ruhlaniradi.

O'ng va chap qo'l o'rtasidagi asosiy farq shundaki, takti belgilashni o'ng qo'l bajaradi, qolgan vazifalarni esa o'ng va chap qo'l birga bajarmog'i kerak.

#### 9-Mavzu:Dirijorlik xarakatlaridagi kamchiliklarni tuzatish, ustida ishlash.

Dirijorlikda u erkin qo'lni «kuylovchi» harakati bilan bajariladi. Egiluvchan qo'lining «kuylovchi» harakatlari avvalo musiqaning silkinisharsiz, to'xtashlar va boshqa o'zgarishlarsiz bir tekis maromi bilan izohlanadi.

Dirijorlikda shurixlarni, o'zining ijro imkoniyatlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalda qo'llaydi va asarning xarakteri hamda tembr ranglarini ochib beradi. Asosiy chizgilar legato, non legato, stakkato, markatolardir. Legato ni qo'lining silliq harakati bilan ko'rsatishi kerak, (F) fortega qo'l quvvat to'playdi, «prujnaga» aylanadi. (P) piano dinamikasidagi legato yumshoq, silliq, qo'l harakati bilan bajariladi. Legato silliq o'zaro bog'langan harakatlarni nuqtaga mayinlik bilan tegish orqali ko'rsatishni talab qiladi.

#### 4. Cholg'u ijrochiligi va ansambli

##### 1-mavzu. Cholg'u ijrochiligi rivojlanish davrlari

O'rta Osiyoda ijrochilik san'atining paydo bo'lgan davridan to XIX asrning 60-yillarigacha taraqqiyoti xalq cholg'ularini uzoq o'tmishda paydo bo'lganligi, Musiqachilikda datslab urna zarbi cholg'ular, damli cholg'ular, so'ngira torli- mizroblari va torli-kamoni Musiqacholg'ulari paydo bo'lganligi hamda tarixiy man'balari.

##### 2-mavzu. O'zbek xalq kuyalari

“O'zganacha”, “Qashqarcha”, “Do'loncha”, “Farg'onacha”, “Norim – norim”, “Rohat”, “Saboh”, “Dutor bayoti” va shu murakkablikdagi boshqa asarlar.

##### 3-mavzu. Fortepiano jo'righida ijro etiladigan asarlar

1. O.Qosimov “Dutorim”, Akbarov “Alla”, P.Holigov “Rags”, M.Mirzaev “Shodlik”, “Yangi tanovar”, K.Komilov “Hayolimda”, R.Tursumov “Shahlo”, F.Alimov “Lirik vals”, H.H.Niyoziy “Sayyora”, G.Qodirov “Rags”, A.Muhammedov qayta ishlagan “Dutor bayoti”, B.Aliyev “Sho'hi pari”, N.Hasanov “Gilos”

##### 4-mavzu. Chet el bastakorlarining asarlari

M.Oginskiy “Polonez”, P.Chaykovskiy “Neopolifanskaya pesnya”, M.Glinka“Polka”, U.Gadjibekov “Qo'shiq va raqs”, I.Brams “Yengercha raqs” №5, M.Bolakov - Polka. Qashqar rubobi sozining ijroviy imkoniyatlari haqida tobora chuqurroq tasavvurga ega bo'yib borish. Taniqli ijrochilarni o'ziga hos ijro uslublari. Mahorat sirlarini o'zlashtirib borish. Notaga qarab chalish malakasini o'tirish, birinchi kursga nisbatan ijro jihatidan birmuncha murakkab bo'lgan texnik va bezakli mas'haqar. Gamma va eynudlarni chalish, fortepiano jo'righida jo'rsozlik va jo'mavozlik malakalarini o'zlashtirish.

O'zbek xalq musiqasi namunalarni ijro etishda maqsadga muvofiq applikatora tanlash va ijro etish bezaklarini qo'llay bilish malakasini o'tsira borish, ifodali ijro tajriba egallab borish.

O'rganilayotgan asarlarni muhsaqil tahlil qilish, asar xarakteriga mos tushadigan ijro uslublarini muhsaqil tanlash va ijro etish mahoratini o'tsira borish.

#### 5-mavzu. O'zbek xalq kuyolari

"Gulbahor", "Tanovar", "Aliqambar", "Oromijon", "Sharob", "Nasri segoh", "Diliroj", "Horazm lazoiisi", "Rajabiy", "Samoi Dugoh", "Mirzadavlat", "Beksulton" va boshqalar.

#### 6-mavzu. Fortepiano jo'rtingida ijro etiladigan asarlar

Q.Mannirov "Yoshlik taronasi", F.Alimov "Raqsi", Sh.Sayfiddinov «Fasli bahor», D.Zokirov «Ko'rmadim», B.Gienko qayta ishlagan «Nayrez» va boshqalar.

#### 7-mavzu. Chet el bastakorlarining asarlari

S.Rahmaninov "Italyancha polka", I.Brams "Vengercha raqs" №2, F.Aminov "Aslan qo'shig'i", M.Glinka "Ivan Susanin", operasidan "Raqsi", F.Shubert "Serenada", U.Gadjibekov "Ko'rog'li" operasidan "Raqsi" va boshqalar.

Bilim va malakalarni takomillashtirish qashqar rubobida badiiy ijro uchun zarur bo'lgan shtrixlar tizimi o'zlashtirish (yakka zarb, qo'sh zarb, teskari zarb, ufor zarb, tremolo) hamda o'zbek an'anaviy musiqada mavjud ornamentlarni (forslag, nahshlag, mardent, trel kabilar) ijro etish texnikasini egallash.

Nota bilan chalish, fortepiano jo'rtingida ijro etish malakalarini o'stira borish, kompozitorlarning murakkab asarlarini chalish, mahoratini singdirib borish. Ijro inkoniyatidan kelib chiqqan holda va o'z mahoratini o'tirish maqsadida ijro uchun mutsagil asarlar tanlash, mos ijro uslublarini topish va o'rganilayotgan asarlarni har tomonlama tahlil qilish, o'quvini o'stira borish.

#### 8-mavzu. Fortepiano jo'rtingida ijro etiladigan asarlar

F.Nazarov "Qo'shiq va raqs", H.Rahimov "Navro'z", A.Muhamedov qayta ishlagan "Rohat", F.Yasilev va E.Shukrullaev qayta ishlagan "Uyg'urcha qo'shiq va raqs", S.Ruisanov "Eskeran", D.Zokirov qayta ishlagan "Tanovor" va boshqalar.

Qashqar rubobida ijro etishning texnik va bezakli ijro etish malakalarini o'rtirib borish, nota yozish, kuy va qo'shiqlarni rubobga moslash va turli tonliklarga ag'dara bilish malakasini egallash:

- davlat attestatsiyasi talablari darajasidagi ijro jihatidan murakkab asarlarni, xalq kuylarini mahorat bilan chalish texnikasini egallash; maktab datsuriga kiritilgan barcha qo'shiqlarga jo'mavozlik qilish, tinglash uchun berilgan asarlarni to'laqonli ijro etish malakasini egallash;

- maktabda sinfdan tashqari musiqiy mashg'ulotlar jarayonida rubobchilar ansambli, duet, trio, kvartet jo'rovozliklarini tashkili etish tajribasini egallash; o'z utsida mutsagil ishlash, asarlar tanlash, mutsagil o'rganish, notaga qarab ravon ijro etish va har bir asarni badiiy va hushohang ijro etish malakasini shakllantirish.

#### 9-mavzu. O'zbek xalq kuyolari

"Cho'li Iroq", "Munjo'ri", "Garduni Dugoh", "Mushkiloti Dugoh", "Hafti Segoh", "Toshkent Uforisi", "Bozurgon", "Tasniifi Dugoh", "Soyaiy" va boshqalar.

#### 10-mavzu. Fortepiano jo'rtingida ijro etiladigan asarlar

J.Sultonov "Raqqosasidan", R.Ne'matov "Humor", M.Bofaev "Poema", S.Haytboev "Rubob taronasi", B.Gienko "Badahshon raqsi", Narimanidze "Davluri" va boshqalar.

Talabalar yil davomida chalish texnikasiga oid materiallar dutor chalishning umumiy qoidalarni o'rganadilar, shuningdek, tovush hosil qilish uchun yozilgan mahsus mashqlarni bajaradilar hamda qochirilmalarni mashq qiladilar. Bu davrda talabalar 6-8 ta badiiy asar va 1-3 sinf uchun mo'ljallangan maktab qo'shiqlarini o'zlashtirishlari lozim.

#### 5111100-Musiqqa ta'limi yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan

#### Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi og'zaki ishlari

#### BAHOLASH MEZONLARI

#### 2-§. Talabalar bilimni baholash mezonlari

Talabalar bilim quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (Yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

#### Yakuniy Davlat attestatsiya sinovida bitiruvchi talabalar uchun xar bir

mutaxassislik fanidan 1 donadan jami 4 ta savoldan iborat bilet taqdim etilib:

- 1-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;
- 2-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;
- 3-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;
- 4-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;

Jami: 100 ballikda

bilimi aniqlanib, Nizomning 1-jadvalligga muvofiq bitiruvchining baxosi qo'yiladi.



Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizomga

ILOVA

Baholashni 5 baholilik shkaladan 100 ballik shkalaga o'tkazish

1-jadval

JADVALI

| 5 baholilik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholilik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholilik shkala | 100 ballik shkala |
|--------------------|-------------------|--------------------|-------------------|--------------------|-------------------|
| 5,00—4,96          | 100               | 4,30—4,26          | 86                | 3,60—3,56          | 72                |
| 4,95—4,91          | 99                | 4,25—4,21          | 85                | 3,55—3,51          | 71                |
| 4,90—4,86          | 98                | 4,20—4,16          | 84                | 3,50—3,46          | 70                |
| 4,85—4,81          | 97                | 4,15—4,11          | 83                | 3,45—3,41          | 69                |
| 4,80—4,76          | 96                | 4,10—4,06          | 82                | 3,40—3,36          | 68                |
| 4,75—4,71          | 95                | 4,05—4,01          | 81                | 3,35—3,31          | 67                |
| 4,70—4,66          | 94                | 4,00—3,96          | 80                | 3,30—3,26          | 66                |
| 4,65—4,61          | 93                | 3,95—3,91          | 79                | 3,25—3,21          | 65                |
| 4,60—4,56          | 92                | 3,90—3,86          | 78                | 3,20—3,16          | 64                |
| 4,55—4,51          | 91                | 3,85—3,81          | 77                | 3,15—3,11          | 63                |
| 4,50—4,46          | 90                | 3,80—3,76          | 76                | 3,10—3,06          | 62                |
| 4,45—4,41          | 89                | 3,75—3,71          | 75                | 3,05—3,01          | 61                |
| 4,40—4,36          | 88                | 3,70—3,66          | 74                | 3,00               | 60                |
| 4,35—4,31          | 87                | 3,65—3,61          | 73                | <b>3,0 dan kam</b> | <b>60 dan kam</b> |

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Mishael Pilhofer and Holly Day "Music Theory for dummies" Indiana USA 2007. Wiley Publishing Ing
2. James Tackett. "Fundamentals of church music Theory" Austin Christian Akappella Musik. Abilene Christian University.2009
3. O'Ma'minov "O'z shidqar, xor asarlari". O'quv qo'llanma. Toshkent 2006 yili.
4. L.I.Ugolova. «Дирижирование». Moskva 2003 yil.
5. V.A.Samarin. «Хороведение и хоровая аранжировка». Moskva 2007 yil
6. G.Sharipova "Musiq va uni o'qitish metodikasi" Toshkent 2006 yil.
7. Urmanova L., Trigulova A., Ibrahimjanova G. Musiq nazariyasi. – Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
8. Ibrohimonova G.A., Yuldoshev U.Yu. Musiq nazariyasi. – Adabiyot uchqunlari. 2018.
9. Mark Feezell. Music Theory Fundamentals. – High-Yield Music heory, vol.1. Copyright © 2011 All Rights Reserved.
10. Michael Pilhofer and Holly Day. "Music Theory for dummies". – Indiana USA 2007 Wiley Publishing Inc.+
11. Ostrovskiy A.L., Solov'ev S.N., Shokin V.P. Sol'fedjio. - M., «Muzyka», 2013.
12. Laduxin N.M. Odnogolosnoe Sol'fedjio. - M., «Muzyka», 2005.
13. Dvuxgolosnoe sol'fedjio. Sost. Sposobin I. - M., «Muzyka», 2009.
14. Ibrohimov O., Yunusov R. Sol'fedjio darsligi. Toshkent. «Musiq», 2004.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik xar bir ra'xbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqboliga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar', №11
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quraniz. Toshkent "O'zbekiston" – 2017y.
3. Mirziyoyev SH.M. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" NMIU, 2016y.
4. Mirziyoyev SH. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2016 y.
5. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi

to`g`risida”O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: “2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Xarakatlar strategiyasi”. Xalq so`zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral` soni va Internet resurs: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

6. O.Sodiqov. “Xor partiturasini o`qish” G.G`ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2004 yil

7. «Musiqqa ta`lim va ma`naviyati». Toshkent 1998 yil.

8. Q.Azimov «O`zbekiston dirijyorlari». Toshkent 2001 yilElektron ta`lim resurslari

9. Kurt Redel. “Taktschlagen oder Dirigieren”.2002yil.

10 Under the direction of mark cedel Athens, Georgia, 2009, USA

11. I. Musin “Texnika dirijirovaniya” . L. “Muzika”, 1967yil.

12.P.G.Chesnokov “Xor I upravleniye im” posobiye dlya xorovogo dirijirovaniya, M. 1961yil

13..L.Andreeva “Metodika prepodavaniya xorovogo dirijirovaniya”. M.1969 yil.

14. N.A.Kolesnikova “Osnovi teorii I metodikiobucheniya dirijirovaniyu”, uchebno – metodicheskoye posobiye. Vladimir ,2012yil.

15. M.Mamirov, D.Boltaboyev “Dirijorlik” 1-qism, Metodik qo`llanma,T,2010yil.

16. J.Shukurov. “Dirijorlik” 1-qism Madaniyat instituti va pedagogika universitetlarining xor dirijyorligi bo`yicha o`quv qo`llanma.T. Istiqlol nashriyoti ,2006yil.

17. E. Toshmatov “Dirijorlik” Xalq ijodiyoti bakalavriat ta`lim y o`nalishi talabalari uchun darslik ,T- 2008yil.

18 J.T.Shukurov “Birgalashib kuylaylik” Oliy o`quv yurtlarining xor dirijyorligi kafedrası o`qituvchi – talabalari uchun “Bolalar xori bilan ishlash” sinfi uslubiy o`quv qo`llanmasi

### **Elektron ta`lim resurslari**

1. [www. Ziyo. net](http://www.Ziyo.net).
2. [http: //www//uralrti/ru](http://www//uralrti/ru).
3. [.www.tpdu.uz](http://www.tpdu.uz).
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
6. tpdu-INTRAN